



## COMPATIBILITY OF EXPRESSION AND IMAGE IN BAHROM ROZIMUHAMMAD'S POEM "AFSUNGAR"

**Ilhombek Kurbanbayev Aminbaevich**

Berdakh Karakalpak State University

Teacher of the department "Uzbek language and literature"

Candidate of Philological Sciences, docent

E-mail: [ilxombek.1974@mail.ru](mailto:ilxombek.1974@mail.ru)

### Annotation.

The article analyzes the harmony of expression and image in lyric poetry, the synthesis of the mood and perception of essence, the integrity of form and content in literary interpretation on the example of the poem "Afsungar" by Bahrom Ruzimhammad. It observes the connection between the expression of emotion and the nature of the creator, the ratio of the intensity of the flow of consciousness and the change in the size of the imagination, the evolution of artistic speech and the ways in which poetic logic is formed. Analytical skills actually require a focus on observation, instruction, comprehension, perception, and observation, in which the materialization of the imagination — the definition of the edge of the tag — rises to the level of the main criterion.

### Key words:

Expression, image, creative nature, emotion, lyric, artistic speech, poetic interpretation, psyche, analytical skills, perception, state, action, mood, individuality, generalization, evaluation criteria, form, content, style, experience, skill, emotional thinking, observation, consciousness, creative nature.

Ifoda va tasvir bir-biriga nisbatan daxlsiz, ayni paytda, aloqador tushunchalar, Haqiqiy she'r hamisha idrok tabiiy oqimini alohidalashga intiladi. Odatda, har bir ijodkor fitrati ruhiy holatni harakat o'sishiga yo'naltiradi, harakat muntazamligi esa kayfiyat manzarasini chizadi. Tashbeh muttasil yangilanishi hamda obraz xoslanganlik darajasi omuxtalashuvi aslida muallif pozitsiyasini belgilaydigan asosiy omil, unda odamzod shuurini band etgan poetik g'oya so'z quvvat-hofizasini kuchaytiradi, unda tasvir originalligi ifoda tahlilini teranlashtiradi, unda idrok sezgisi tasavvur yig'irligini ta'minlaydi, chunonchi, "so'z avvali - oxir adabiyotning quroli bo'lgan. Badiiylik - so'z sehrini ko'z-ko'z qilish, uning sir-sinoatlarini ochib berish. Poetika aslida badiiy asar tilini talqin etishdan boshlangan. Asl filologiya hanuz so'zni ardoqlash, uni parvarishlash imkoniyatlarini yuzaga chiqarish"[5, 318] dan iborat. Iqtibosda bir nechta jihat e'tiborni tortadi: birinchidan, so'z idrok sezgisini namoyon qiladigan asosiy vosita sanaladi, ikkinchidan, badiiylik kalom sir-sinoatini inkishof qilishga xizmat qiladi, uchinchidan, ijodiy andisha tasavvur imkoniyatlarini kengaytiradi, to'rtinchidan, tilning amaliy ishlanganlik darajasi adabiy mahorat mezonini belgilaydi. So'zni his qilish, tuyish aslida ruhiyatni idroklashga borib taqaladi. Holatni anglash jarayoni esa tahlil malakasi hamda talqin salohiyatini markazlashtiradi:

Osmon yam-yashil edi  
qizil bulutlardan  
nimpushti rangda sharbat yog'ardi  
Azroil  
tik boqdi  
bu manzaraga [2, 77].

Yangi davr o'zbek she'riyati taraqqiyotida Bahrom Ro'zimuhammad ijodi salmoqli o'rin tutadi. Adabiy til sathidan o'ziga xos poetik mantiq hosil qilgan shoir uslubiy izlanishlarida so'z va g'oya sintezi ruhoniylaxlitlikka erishadi. Muallif bitiklarida tushuncha birdaniga ikki miqyos: ham shakl, ham mazmun jihatidan ta'sir o'tkazadi. Idrok tasviri hamda manzaraviylik asosiga quriladigan sohir san'atda ijodiy mantiq imkoniyatlarini kengaytirish mayli ustuvor, unda imo-ishora va ramz tili adabiy tafakkur qatiga singib ketadi. Yuksak intellektual salohiyat "va falsafiy teran mushohada ruhiy holat harakatdagi manzarasini uyushtiradi. Murakkab poetik stilistika, ifoda yo'sinida qabarib ko'rinadigan badiiy nutq takomili moderncha talqin maromini belgilaydi. Shoir har bir adabiy talqini ichki ma'no yaxlitligiga tayanadi. Unda xos mantiqiy fikrlash darajasi sabab va oqibat aloqadorligiga chek qo'yadi. So'z badiiy jilvasi va g'oya ifodasi kengayishi she'r ruhiyatini tubdan isloh qiladi. Munosabatli nutq tig'izlashuvi hamda ruhiy holat tarangligi muallif "Tovushsiz qadam" (1987), Terakka yaqin yulduz" (1989), "Ikki nur" (1994), "Davsaman" (1995), "Tinch gullaydigan daraxt" (1997), "Kunduz sarhadlari" (1999) va "Soyalar suhbatl" (2006) she'riy to'plamlarida yorqin namoyon bo'ladi. Sezim va mushohada aralashib- :qorishib ketishi tasvir yo'nalishini to'liq o'zlashtirishga imkon bermaydi. Uzun-yuluq iboralar, kontrast belgilar ustuvorligi hamda tahlil malakasi xususiyati ijodkor fitratini markazlashtiradi.

She'r manzara tasviri bilan boshlanadi: "Osmon yam-yashil edi, qizil bulutlardan, nimpushti rangda bulut yog'ardi". Muallif poetik mantiqni tasavvurlar oqimidan yaratadi, unda ruhiy kechinma ma'no daxlsizligini keltirib chiqaradi, unda tahlil quyugligi va ifoda miqyosi bir-birini to'diradi. Shoir hayotni asliyatda emas, balki xayoliy tasavvurda qayta tikashga intiladi. Ifoda intizomi aslida badiiy yaxlitlikni tavsiflashga intiladi. Ruhiyat quyqalari, poetik xotira retrospeksiyasi matnga muayyan izchillik bag'ishlaydi. Gap bo'laklari yoyiqligi falsafiy mushohada serqatlamligini hosil qiladi. Poetik manzarada g'alati paradoks mavjud: bir qarashda, kitobxon idrokini charchatadigan g'oya mantiqiy izchillik yordamida poetik uyg'unlik hosil bo'lishiga yo'l ochadi. Aralash talqin o'lchami tabiatan ijodkor fitratida bo'rtib turadigan badiiy shartlilik hosilasi, unda borliq manzarasi g'oyat majozlashadi. Siqiq tasvir ruhiyati shaxs kechimida ilg'ash mushkullik tug'diradigan holatni rasmiylashtirishga zamin hozirlaydi:

Tamaki tutuni

uchoq izi kabi shakl qoldirdi havoda  
nimpushti manzaraga hoshiya bo'ldi [2, 78].

Shoir poetik idrok ijodiy daxlsizligini izchil rivojlantiradi. Har bir so'z metaforaga teng talqinda mantiqiy kenglik ijodiy mantiqni yuzga chiqaradi. Tushunish va tushunmaslik orasida kechadigan jarayonda ifoda zamirida ma'no o'z qobig'idan chiqadi. Ruhiyat tasviridan tasvir ruhiyatiga ko'chish mahorati estetik idrok ustuvorlashuviga yo'l ko'rsatadi. Poetik chizgi (tamaki tutuni, uchoq izi kabi shakl qoldirdi havoda, nimpushti manzaraga hoshiya bo'ldi) bir-biriga chambarchas bog'langan mohiyat uzviyligini dalolatlaydi. Vaholanki, "tinis belgisi qo'yilmagan she'rni o'qish ucun she'rxon bitikning ichiga chuqurroq kirishga, uning badiyatidagi har bir qatlamni teran idrok etishga, shu asnoda she'rda aks etgan holatni nozikroq tuyishga, undagi fikrlarini to'laroq tushunishga intiladi" [4, 259-260]. Aslida inson sezimi ta'rifga sig'maydi. Hissiy tafakkur shiddati har qanday qolipni ham parchalaydi. Oniy lahzada turlanib-tuslanadigan so'z vazni zamon, makon va imkon sarhadlarini kengaytiradi. Adabiy zavq yuksakligi matn mukammaligini ta'minlaydi. Hayot va xayol ziddiyati ifodani yorqinlashtiradi. So'z-g'oya-talqin munosabati rivoya texnikasi alohidalashuviga turtki beradi, ayni pallada, har bir shoir individual munosabatni universal tasvir miqyosiga yo'naltiradi. Tshlil va talqin tezkor o'rin almashinuvlari iqtidor salohiyatini belgilaydi, Unda ifoda uslubi betakrorlikni sharhlaydi:

Qandaydir bir mahluq bor ovozi bilan kuldi  
so'ng avvalgidek jimlik cho'kdi  
yerga osmonga [2, 78].

Ichki ruhiy-intellektual hozrlikka ixtisoslashgan tasavvur oqimida ko'ngil botinida teranlashuv mayli seziladi. Odamzod fe'l-atvorining yashirin mohiyatini idroklashga intilish matn uyg'unligini tayin etadi. Zaminni chulg'ayotgan "sukunat" qatimida shovqin izlari ko'zga tashlanadi. Tasvir noodatiyligi muallif o'y-xayyollari mahsuli, ijodkor dil rozini chizishda hayotiy mantiq chegaralarini

o'zgartirib yuboradi hamda o'ziga xos poetik olam yaratadi. Xayol, idrok va mushohadani tasavvurga yig'ish, unda tavsif, taassurot va ruhiy kechinma yaxlitligini ta'minlash bitik fasohatini hosil qiladi. Ruhgaingan holat, hissiyotga chulg'angan hayrat va shuurni uyg'otadigan malaka asl ijodiy fikrlash tarzini estetik ehtiyojga aylantiradi. Majoz pardasini ochadigan ifoda mustaqilligida ruhoni intizom mujassam, joriy holatda voqelik va mohiyatni uyg'unlashtirish badiiy mantiq zimmasiga yuklatiladi. Mushohadaga qoniq hissiy tafakkur, ruhiyat inja sir-asrorini anglashga moyillik va tasvirni tasavvurda yaxlitlash istagi shoir ifoda uslubini dalolatlaydi. Mohiyatan "tuzumlar o'zgarishi, jamiyatlar evrilishlari badiiylik mezonlarining yangilanishiga, obrazlar tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berishiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Adabiy jarayon po'rtanavor hodisalarga o'ch bo'ladi. Katta avlod faolligi aksar o'rinda yangi, yosh kuchlar qo'lga o'tadi. Zimdan didlar va estetik qarashlararo kurash va ziddiyatlar kuchayadi. Mazmun va g'oyada yangilikka erishish murakkabliklari, o'z navbatida, yangilikni yutoqib shaklda izlash tomonga ko'chiradi" [3, 41]. Yangilanish jarayoni uslubiy-shakliy izlanishlardan oziqlanadi. An'anaviy talqin bilan bo'ylashayotgan modernistik ifoda aynan jamiyatda kuzatilgan fikrlash tarzidagi erkinlik darajasiga payvandlanadi. Unda so'zdan g'oyaga, shakldan mazmunga, tasvirdan ifodaga qadar murakkablashuv jarayoni sodir bo'ladi.

Umuman, Bahrom Ro'zimuhammadning "Afsungar" she'rida tasvir va ifoda bir-birini to'ldiradigan badiiy yaxlitlikni hosil qiladi. Unda hissiy tafakkur mushohadani yorqinlashtirish, boyitish hamda alohidalash vositasiga aylanadi. Shoir adabiy talqinda ham tuyg'u sarzanishlarini chizadi, ham ruhiyat og'riqlarini tuydiradi. Aslida idrok tarangligi, dunyoqarash va mushohada sintezini tavsiflaydi. Odamzod shuurini band etgan hayotiy sezimdan o'zgacha poetik mantiq kashf etishga moyil ijodkor fitratida g'aroyib sir-asrorlar bo'y ko'rsatadi. Hayratga tutash estetik salohiyat, vazmin ohang va intellektual bosim yuqoriligi muallif bitiklarida yorqin namoyon bo'ladi. Inson hayoti ziddiyatlari falsafiy teranligini umumlashtirish, qalb evrilishlari ichkin sir-asrorini idroklash mayli, umid va ishonchni yangi ohang hamda o'zgacha badiiy o'lchamda jilolantirishga intilish, tuyg'u tadrijini harakatdagi jarayon sifatida ko'rsatish iqtidori, holat manzarasi jilvasini o'quvchi idrokida jonlantirish qobiliyati shoir ijodi tabiatini belgilab beradi.

### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Bahrom Ro'zimuhammad. Soyalar suhbat. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 2006.
3. Mustaqillik davri adabiyoti. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 2006.
4. Qozoqboy Yo'ldosh. Ochiq so'z. -Toshkent: Tafakkur, 2019.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. - Toshkent: Sharq, 2007.
6. Umurov H. Adabiyot qoidalari. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. <http://www.ziyouz.com/>.